

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI HAMDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI

Allashukurov Jamshid Bahodirovich

O'zbekiston respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish
vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi talabasi

Tayanch so'zlar: kichik biznes va tadbirkorlik, bank, bank xizmatlari, kreditlar, imtiyozli kreditlar, moliya institutlari, ishbilarmonlik muhiti, yalpi ichki mahsulot, xorijiy investitsiya, oilaviy tadbirkorlik.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, банк, услуги банка, кредиты, льготные кредиты, финансовые институты, сфера работаспособности, валовая внутренняя продукция, семейное предпринимательство.

Key words: small business and entrepreneurship, bank, banking service, loans, privileged credit, financial institutions, environment of entrepreneurship, world bank, gross domestic product, foreign(external) investment, family entrepreneurship.

Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik niqo`llab–quvvatlash yo`nalishlari, huquqiy asoslari, YaIMdagi ulushi tahlil qilib berilgan.

В статье рассмотрено основное направления поддержки малого и среднего предпринимательства, его правовое аснова и дано анализ этого сектора в ВВП.

In this article legal foundatios, the trend and criteria of how to maintain small business and private entrepreneurship are depicted and this sector's share in GDP is analysed as well.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar ustuvor mavqega ega bo'lib mamlakat iqtisodiyotining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda, aholi bandligini oshirish maqsadida yangi ish o'rinlarini yaratishda hamda pirovard natijada aholi turmush tarzi va daromadlarini oshirishda ularning roli juda yuqoridir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Bugungi kunga kelib yurtimizda turli mulkchilik munosabatlarining shakllanishi, shu bilan birga xo'jalik yurituvchi subyektlar orasida mulkdorlarning o'rta sinfi shakllanishi, aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish vazifalarining muhim omili sifatida yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun ham O'zbekiston istiqlolining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lmish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish tizimini yaratishga, ushbu sohani tartibga solish va yanada qo'llab-quvvatlashning normativ huquqiy asoslarini takomillashtirishga juda katta e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada soddalashtirish, ularning ochiqligini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning samarasi dunyodagi rivojlangan davlatlar hamda xalqaro moliya institutlari tomonidan ham yuqori baholanib kelinmoqda. O'tgan 2015-yilning 27-oktabrida Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilingan "Biznesni yuritish 2016: tartibga solish sifati va samaradorligini baholash" hisobotida O'zbekiston dunyoning 189 mamlakati orasida 87-o'rinni egalladi, bu o'tgan yilgi hisobotdagi 141-o'ringa nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichdir. Shu o'rinda respublikamiz o' reytingini yaxshilash bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichga erishgan 5 ta mamlakat qatoriga kirdi. Jahon banki ekspertlari tomonidan joriy yilgi hisobotda 10 ta yo'nalishdan 8 tasi bo'yicha O'zbekistonning o'rni yaxshilandi. Bunga ko'p jihatdan huquqiy asosni mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e'tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "...kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning katta qismini qamrab olgan sohaga aylanadi. Shuning uchun ham bu soha uchun yangi imkoniyat, imtiyoz va perefrensiviyalar yaratib berish va uni yangi bosqichga ko'tarish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda."

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakatimizda qo'llab-quvvatlash asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilyapti:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

- mamlakatimiz va uning mintaqalarida yanada qulay biznes-muhit yaratish,xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlash;
- kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratish,imtiyoz va preferensiyalar berish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish,ularning hajmini oshirish;
- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim masalalaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan mamlakat yalpi ichki mahsulot hajmini keskin oshirish hamda milliy farovonlikni oshirishdan iborat.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi ulushi,foizda^[1]

1-jadval

Ko'rsatkich	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil(9 oylik ma'lumotlar)
YAIM	52.5	54.0	54.6	55.8	56.1	53.6
Sanoat	18.8	21.9	23.1	28.1	31.7	34.6
Pullik xizmatlar	47.0	46.3	44.9	46.2	48.6	49.3
Bandlik	74.3	75.1	75.6	76.7	77.6	77.5

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki,so'nggi yillar ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyoti va uning asosiy tarmoqlaridagi ulushi sezilarli darajada oshdi.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIM dagi ulushi 2010 yilda nisbatan 2015 yil(to'qqiz oyi)da 1,1 % , sanoatdagi ulushi 15,6% ga, 2014 yilga nisbatan 2,6% ga, pullik xizmatlar 2010 yilga nisbatan 2,3% ga oshgan.

Mamlakatimizda bugungi kunda ish bilan band aholining 75 foizi mazkur tarmoqda faoliyat ko'rsatadi.Bunday jadal sur'atlardagi iqtisodiy o'sish mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish,soddalashtirish va arzonlashtirish,kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hisobiga bo'layotir.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus jamg'arma tashkil etilib, faoliyat yuritmoqda. Ushbu jamg'arma yordamida eksportga mahsulot yetkazib berish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan 1 mlrd.dollardan ziyod hajmdagi shartnomalar imzolangan bo'lib, 2014-yilda, birinchi navbatda, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermer xo'jaliklari sohasida 840 mln.dollardan ziyod miqdordagi tovarlar eksporti amalga oshirildi.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda bank tizimining o'rni o'ziga xos ahamiyatga ega. Xalqaro ekspertlar tahliliga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgan. Banklar tomonidan soha vakillarini kreditlash va boshqa xizmatlarni ko'rsatishda imtiyoz va qulayliklar yaratilmoqda:

Xususan, qayta moliyalash stavkasi, 2015-yilning 1-yanvaridan yillik 10 foizdan 9 foizga tushirildi^[2]. Qayta moliyalash stavkasining tushirilishi iqtisodiyotda quyidagi ijobiy o'zgarishlarga olib keldi:

- bank kreditlari bo'yicha foiz stavkasi pasaydi va buning natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlari kamayib, investitsion faolligi oshdi;
- korxonalarining foiz xarajatlari kamayishi natijasida bo'shab qoladigan mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish hisobiga iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan kreditlar hajmi o'sishi ta'minlandi.

Yana shuni aytish joizki, 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlar uchun daromad solig'i stavkasi 25 foizdan 15 foizga, qurilish sohasidagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi.

Imtiyoz va preferensiyalarning ushbu ro'yxatini davom ettirish mumkin. Mustaqillik yillarida soha vakillariga yaratilgan rag'batlantiruvchi omillar, imtiyoz va kreditlar ajratish ushbu sohaning O'zbekistondagi jadal taraqqiyotini belgilab bermoqda. O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlariga kreditdan foydalanishga qulay sharoitlar yaratilgan: tijorat banklari va ularning shaxobchalarining kengayishi, maxsus Mikrokreditbankning tashkil etilishi, mikrokreditlarning joriy etilishi va hokazo. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlar tarkibida kichik biznesga berilgan kreditlarning ulushi yildan yilga ortib borayotgani kuzatilmoqda.

So'nggi o'n yil mobaynida soha subyektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 21 barobarga, mikrokreditlar hajmi esa 42 barobarga o'sdi va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

tadbirkorlarning kreditlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Birgina 2015-yilning to'qqiz oyi daomida tijorat banklari tomonidan xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9.6 trillion so'mdan ortiq yoki 2014-yilning shu choragiga nisbatan 1.3 marta ko'p kreditlar ajratildi.

Shuningdek, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashga ham e'tibor berilmoqda. Ya'ni oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik, ayol tadbirkor hamda kollej bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi takomillashmoqda. Tijorat banklari tomonidan esa ularga imtiyozli shart va kreditlar ajratilmoqda. Xususan, 2015-yilning 11 oyi davomida tijorat banklari tomonidan ayol tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga 1.2 trln. so'mdan ziyod kredit resurslari ajratildi.

Ta'kidlash joizki, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar Jahon banking "Doing Business" hisobotida O'zbekiston Respublikasi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan hamda izchil olib borilayotgan puxta o'ylangan, samarali iqtisodiy siyosat pirovardida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratdi. Bu esa iqtisodiyotimizni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishning davom ettirilishiga, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishning ta'minlanishiga, mamlakatimizning dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamlashiga asos bo'ldi.

Adabiyotlar:

- 1..Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir-T.: "O'zbekiston", 2015. B.51.
2. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi". Xalq so'zi, 2015-yil 18-yanvar
3. Hamroyev H. Tadbirkorlik asoslari-T.: "Yangi nashr", 2010. B.308.
4. Bozor, pul va kredit №11, 2014 -T. Madaliyev "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda banklarning o'rni". B.14.

